

## TILSHUNOSLIK VA CHET TILLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Eshonqulova Fayziniso Abdug‘ofur qizi*  
*EFL teacher of Uzbekistan state world*  
*languages university*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tillarini o‘qitishda va tilshunoslikda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanishning muhim ahamiyati va uning samaradorligi tahlil qilinadi. Qolaversa, tezisda mobil ilovalar, onlayn platformalar, sun‘iy intellekt va multimedia resurslarining til o‘rganish jarayonidagi o‘rni haqida bayon etiladi. Raqamli texnologiyalarning dars jarayonini tashkil qilishdagi samarasi va shu bilan birgalikda o‘quvchilarda darsga qiziqishni oshirishi, bilimni eslab qolish darajasi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ijobiy ta‘siri haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birgalikda, internetga kirish imkoniyatining cheklanganli, raqamli texnologiyalardan foydalanishda savodsizlik, ekran oldida vaqt ko‘p vaqt sarflashning ham ruhiy ham jismoniy salbiy ta‘sirlari tahlil qilinadi. Maqola yakunida raqamli texnologiyalar ta‘lim sifatini oshirishda muhim omil ekani, biroq ularni to‘g‘ri va muvozanatli qo‘llash zarurligi ta‘kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli texnologiyalar, onlayn ta‘lim, sun‘iy lingvistik, interaktiv ta‘lim, saqamli savodxonlik

### **Kirish**

Hozirgi globallashtirish va raqamlashtirish paytida ta‘lim tizimi ham keskin o‘zgarib borayotganligi hech kimga sir emas. Jahon statistik ma‘lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar ta‘lim muassalarining 85-90% qismida bungungi kunda foydalanilarkan. . Ayniqsa, chet tillarini o‘rib kelayotgan yosh avlodga o‘rgatishda raqamli vositalarning ulushi yanada ko‘proq bo‘lib, o‘quvchilarning 70-75% qismi til o‘rganishda turli xil mobil ilovalar , onlayn platformalar va multimedia resurslaridan keng foydalanishmoqda. Bu holat esa ta‘limni raqamli va interaktiv shaklga an‘anaviy shakldan voz kechib o‘tganini isbotlamogda.

Tilshunoslik fanida ham raqamli texnologiyaning o‘rni beqiyos. Hozirgi kunda tilshunoslik ya‘ni lingvistik tadqiqodlarning 60-65 % qismi korpus lingvistik asosida tahlil qilinmoqda, ya‘ni kata hajmdagi matnlar bazasi orqali til tahlil qilinmoqda. Bu albatta raqamli texnologiyaning fanga ijobiy ta‘sirlaridan biri. Bundan tashqari, sun‘iy intellekt va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari esa matnlarni tahlil qilish, tarjima qilish va nutqni aniqlash jarayonlarining 80% dan ortig‘ini avtomatlashtirgan. Bu tilni o‘rganish va tadqiq etishni ancha tez va samarali qilmoqda.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, tilni o‘rganishda raqamli texnologiyalar hozirgi kunda katta ahamiyatga ega. Statistik ma‘mulotlarga ko‘ra, til o‘rganuvchilarning 65-70 % qismini turli xil mobil ilovalardan foydalanmoqda. Masalan, Duolingo platformasi dunyo bo‘yicha yuz millionlab foydalanuvchilarga ega bo‘lib, ularning katta qismi kundalik ravishda til o‘rganish uchun aynan shu ilovadan shug‘ullanadi. Ushbu platformadan foydalanish natijasida o‘quvchilarning muntazam til o‘rganish odati 30–40% ga oshgani kuzatilgan.

Shuningdek, minemonika va quizlet kabi ilovalar va dasturlar til o'rganuvchilarning eng kata muammosi hisoblanadigan so'z yodlashni ham ancha osonlashtirdi. Ilmiy tatqiqod ko'rsatkichlariga qaraganda, interactive flashcard tizimlari yordami bn eslab qolish darajasi sezilarli 25-35 % ga yaxshilandi. Bu esa an'anaviy so'z yodlash usullaridan ancha samarali hisoblanadi.

Online ta'lim platformlari ham tilni o'qitishda va o'rganishda allaqachon o'zining qator foydalari bor ekanligi isbotlab qo'ygan. Zoom, Google meet kabi platformalar orqali masofaviy ta'lim tashkil etilib ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlashda xizmat qilmoqda. Bunga misol qilib, Pandemiya davrida butun jahon bo'yicha ta'limning deyarli 90 % qismi vaqtincha onlayn shaklga o'tganligini keltirishimiz mumkin. Bu esa, o'z navbatida raqamli texnologiyaning qanchalik muhimligining yana bir isbotidir.

Raqamli texnologiyaning ya'na bir muhim afzalliklaridan bir bu o'quv jarayonining samaradorligi va foydaliligini oshirishdir. Tatqiqodlarga ko'ra, raqamli vositalardan foydalanish dars jarayonining qiziqarli va foydali tashkil etishning asosiy omili hisoblanadi va eslab qolish va tushunish darajasini 20-40 % ga oshiradi, darsdagi faollik esa 50 % gacha ko'tariladi. Bundan tashqari, mustaqil o'rganuvchilar uchun ham sifatli darslarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

#### **Ta'lim samaradorligiga ta'siri**

<b>Ko'rsatkich</b>	<b>O'zgarish (%)</b>	<b>Izoh</b>
Bilimni eslab qolish	+20–40%	Interaktiv o'qitish sababli
O'quvchilarning faolligi	+50–60%	Gamification tufayli
Mustaqil o'qish samarasi	+30%	Mobil ilovalar yordamida
Darsga qiziqish	+45%	Multimedia ta'siri

Biroq, hamma sohada bo'lganidek raqamli texnologiyalarda ham qator muammolar mavjud. Birinchidan, dunyo bo'ylab o'quvchilarning taxminan 25 % qismi internetdan to'liq foydalanish imkoniga ega emas, bu esa ta'limda tengsizlikka sabab bo'ladi. Bu holat ayniqsa chekka hududlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Natijada ayrim o'quvchilar onlayn darslar, platformalar, mobil ilovalar, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lolmaydilar. Bu esa ta'lim sifati hamma uchun teng emasligini ko'rsatadi.

Yana bir dolzarb muammolardan biri – millionlab o'qituvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanishda besavodligidir. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'ylab o'qituvchilarning 40 % dan ortig'i raqamli platformalar, LMS tizimlar (masalan, Google Classroom, Moodle) va interaktiv vositalardan yetarli darajada foydalana olmaydilar. Bu esa darslarni oddiy videolar yoki slaydlar bilan chetlab qo'yadi, natijada raqamli ta'limning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi.

Shu bilan bir qatorda, ekran oldida ortiqcha ko'p vaqtni o'tkazish ya'ni screen time ham yoshlar orasida o'troq turmush tarziga va nafaol jismoniy holatga sabab bo'lmoqda, bu esa uzoq muddatli yomon oqibatlarga olib keladi. Masalan. Uyquning buzilishi, ko'z og'rig'i, ruhiy charchash va diqqatning susayishi kabi holatlar kuzatiladi. Psixologik kuzatuvlarga qaraganda, ekran oldida ko'p vaqt o'tkazish diqqatni jamlashni va xotirani 20-30 % gacha pasayishiga sabab bo'ladi.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyaga haddan tashqari suyanish mustaqil fikrlash qobiliyatiga ham keskin salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, google translate

dan foydalanish ham o'quvchilarni tarjima qilish qobiliyatlarini pasaytirib yuboradi, natijada " tayyor javobga bog'lanib qolish muammosi " yuzaga keladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda , tilshunoslik va tillarni o'qitishda raqamli texnologiyar o'qitish tizimiga o'zining kata ijobiy ta'sirni ko'rsatdi. Bu texnologiyalar nafaqat an'anaviy usullarni kamchiliklarini bartaraf qilishda, qolaversa ta'lim jarayoning samaradorligini oshirmoqda. Buning asosiy sababi, raqamli texnologiyalar o'quv jarayonini interaktiv, vizual va individual shaklda tashkil etishda foydalaniladi . Masalan, multimedia materiallar, onlayn testlar va mobil ilovalar orqali o'quvchilar nafaqat o'qiydi, balki eshitadi, ko'radi va amaliy bajaradi. Bu esa bilimni uzoq muddatli xotirada mustahkamlashga yordam beradi.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Warschauer, M. (2010). *Digital Literacy and Language Learning*. University of California Press.
2. Chapelle, C. A. (2001). *Computer Applications in Second Language Acquisition*. Cambridge University Press.
3. Hubbard, P. (2013). *Computer Assisted Language Learning: Critical Concepts*. Routledge.